OLIY TA‘LIM TALABALARIDA KOMMUNIKATIV O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHNING KURS DINAMIKASI

Xolbo‘tayev Xudoybergan Haybatullo o‘g‘li
Farg‘ona viloyat, Yozyovon tuman, 30-maktab psixologi
xudoyberganxolbutayev@.gmail.com

Kalit so‘zlar: kommunikativ o‘z-o‘zini baholash, kurs dinamikasi, Dunning-Kruger samarasi, talabalar, oliy ta’lim

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy-psixologik jihatdan faol rivojlanadigan bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda talabaning o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga va kommunikativ qobiliyatlariga nisbatan subyektiv bahosi ham shakllanib boradi. Biroq bu baho har doim obyektiv ko ‘rsatkichlarga mos kelmaydi — psixologiyada bu hodisa Dunning-Kruger samarasi sifatida ta’riflanadi: tajribasi kam bo‘lgan shaxslar ko‘pincha o‘z qobiliyatlarini ortiqcha baholaydi, tajriba ortishi bilan esa baholash realistiklashadi.

Ushbu tezisda Farg‘ona davlat universiteti va Oziq-ovqat muhandisligi va texnologiyasi xalqaro instituti talabalari (jami n = 120; 1-kurs — 46, 2-kurs — 41, 4-kurs — 32 nafar) ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga asoslaniladi. Tadqiqotda M.B. Yuldasheva va X.H. Xolbo‘tayev tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so ‘rovnoma (IPS) qo‘llanildi. So‘rovnomaning A bloki talabaning emotsional-irodaviy xususiyatlarini subyektiv baholashini o‘lchaydi. Bundan tashqari, talabalarning o‘z kommunikativ qobiliyatlariga nisbatan umumiy subyektiv bahosi ham alohida savol orqali aniqlandi.

Kurs kesimidagi tahlil quyidagi naqshni ko‘rsatdi. 1-kurs talabalarining 54,3 foizi o‘z kommunikativ qobiliyatini yuqori deb baholadi. 2-kursga kelib bu ko‘rsatkich keskin pasayib, 26,2 foizga tushdi. 4-kursda esa o‘zini past baholaydigan talaba umuman yo‘q bo‘lib, o‘rtacha va yuqori baholash teng taqsimlandi. Ijtimoiy psixologik so‘rovnomaning A bloki bo ‘yicha statistik tahlil ham ushbu naqshni tasdiqladi: 4-kurs talabalarining emotsional-irodaviy o‘zini baholashi 1-kurs ($t = 2,77$; $p = 0,007$) va 2-kurs ($t = 3,00$; $p = 0,004$) talabalariga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli past bo‘lib chiqdi. 1-kurs va 2-kurs o‘rtasida esa farq kuzatilmadi ($p = 0,999$).

Bu naqsh Dunning-Kruger samarasi bilan yaxshi izohlanadi. 1-kursda talaba hali o‘z kamchiliklarini to ‘liq anglamaydi — kommunikativ vaziyatlar uni qiynayotganini his qilmaydi va shuning uchun o‘zini yuqori baholaydi. 2-kursga kelib akademik va ijtimoiy talablar ortadi, talaba o‘z cheklovlarini anglay boshlaydi — bu subyektiv bahoning pasayishiga olib keladi. 4-kursda esa kasbiy identifikatsiya, mustaqil fikrlash va tajriba o‘sishi natijasida talaba o‘zini realistik, biroq ishonchli baholay boshlaydi. Shu sababli past baho butunlay yo‘qoladi.

Motivatsion yo‘nalganlik bloki (B) bo ‘yicha esa kurslar orasida statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bu shuni ko ‘rsatadiki, muloqotga ichki ehtiyoj va motivatsiya talabalik davrida barqaror saqlanib, kurs o‘tishi bilan o‘zgarmaydi. Demak, o‘zgarib turadigan narsa qobiliyat emas, balki o‘sha qobiliyatni baholash ko‘zgu — ya ‘ni o‘zini tanqidiy ko‘ra bilish darajasi.

Mutaxassislik yo‘nalishi kesimida ham qiziqarli naqsh aniqlandi: psixologiya yo‘nalishi talabalari o‘z kommunikativ qobiliyatini eng realistik tarzda baholadi (68,8 foizi o‘rtacha), iqtisod yo‘nalishi talabalari esa eng yuqori baho berdi (51,5 foizi yuqori). Bu psixologiya ta‘limining introspeksiya va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan izohlanishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kommunikativ o‘z-o‘zini baholash talabalik davri mobaynida murakkab, bosqichli dinamika namoyish etadi. Ushbu dinamikani tushunish oliy ta‘lim psixologlari va

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

o‘qituvchilari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega: 2-kurs talabalarida kuzatiladigan baholash pasayishi muammo emas, balki psixologik yetilishning belgisi sifatida talqin etilishi va pedagogik amaliyotda hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kruger J., Dunning D. Unskilled and unaware of it // Journal of Personality and Social Psychology. — 1999. — Vol. 77(6). — P. 1121–1134.
2. Yuldasheva M.B. Differentsial psixologiya. Darslik. — Farg ‘ona: FarDU nashriyoti, 2025. — 280 b.
3. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. — M.: Aspekt Press, 2001. — 290 s.
4. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. — M.: Logos, 2002. — 384 s.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.